



## FARG'ONA VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## FARG'ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI


2022-YIL YANVAR-SENTABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)



## Farg'ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022-yil yanvar-sentabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyati korxonalarini tomonidan 21 831,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 93,1%ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* %da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat bo'lib, yanvar-sentabr oylarida 4,8 %ga o'sishi kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 65,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 %ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab  
chiqarishi hajmidagi  
ulushi, foizda**

2021-yil

B

0,5%


2022-yil

B

0,3%

yanvar-sentabr

### Ishlab chiqaradigan sanoat



2022-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 20 327,6 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 93,1 %ini tashkil etdi.

**2021-yil  
yanvar-sentabr**


93,5%

**2022-yil  
yanvar-sentabr**

93,1%


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 %ni (2021-yilning yanvar-sentabr oylarida – 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,4 % (12,8 %), o'rta-quyi texnologiyali – 21,6% (27,2%) va quyi texnologiyalisi – 54,8% (52,9%)ni tashkil etdi.

■ 2021-yil ■ 2022-yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 7,7 % (2021-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 103,0%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 39,1% (2021-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 113,1 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,4% (2021-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 101,0%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,3 % (2021-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 133,1 %)ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagি mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari



yanvar-sentabr



2022-yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 158,3 ming tonna avtomobil benzini (2021-yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan 9,0%ga kamaygan), 232,9 ming tonna dizel yoqilg'isi (19,0 % kamaygan), 83,8 ming. tonna kalava ip mahsulotlari (5,6%ga kamaygan) hamda 37200,1 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (29,9%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-sentabr	2022-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Avtomobil benzini, ming t	174,0	158,3	-15,7
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	192,0	170,9	-21,1
Paxta chigiti, ming t.	27,4	45,4	18,0
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	12,4	11,2	-1,2

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini  
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish



Karbamid Ming. t

2021-yil

110,7

2022-yil

106,5



Dizel yoqilg'isi Ming. t

2021-yil

287,4

2022-yil

232,9

Portlandsement . t



2021-yil

748,6

2022-yil

739,2

Etil spirti Ming. l



2021-yil

12225,0


2022-yil

11134,0

Farg'ona viloyatida 2022-yil yanvar-sentabr oylarida jami 106,5 ming tonna karbamid mahsuloti ishlab chiqarildi. Shuningdek dizel yoqilg'isi ishlab chiqarish 232,9 ming tonna, portlandsement ishlab chiqarish 739,2 ming tonna, Etil spirt ishlab chiqarish esa 11134,0 ming litrni tashkil etgan.

## Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 157,3 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,9%ni, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida metallurgiya sanoati 92,2 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5%ni tashkil etdi.



## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 2 151,2 mlrd so'mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 11,9 %ni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 2508,6 mlrd so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 12,3 %ni tashkil etdi.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 3 018,9 mlrd.so'mni, joriy 2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 3 087,3 mlrd. so'mni tashkil etdi, va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 15,2 %ni tashkil etdi.




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 52,1 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 46,8 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,3 mlrd. so'mga kamaygan va jami ishlab chiqaradigan sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 0,2 %ni tashkil etdi.



## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021-yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 5 202,8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning jami ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 28,8 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 6792,6 mlrd.so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 33,4 %ni tashkil etdi va 4,6 punktga ko'paydi .

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,4% ni ya'ni jami 798,7 mlrd.so'mni tashkil etgan, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 4,2%ni tashkil etib 855,8 mlrd.so'mga tengdir. Farg'ona viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan 57,1 mlrd.so'mga ortgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (farmasevtika)

2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 75,1 mlrd.so'mni, ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 %ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha 27,0 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib jami ishlab chiqariladigan sanoatdagi ulushi 0,1 %ni, tashkil etdi.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 2 094,4 mlrd.so'mni tashkil etib jami ishlab chiqariladigan sanoatining 11,6 %ni tashkil etgan.



Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari jami ishlab chiqariladigan sanoatining 5,3 %ni tashkil etib, 1071,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish sanoatining jami sanoatdagi ulushi 2,4 %ni ya'ni 432,5 mlrd.so'mni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida rezina va plastmassa buyumlari ishlab chiqarish sanoatining jami sanoatdagi ulushi 2,5 %ni ya'ni 517,2 mlrd.so'mni tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonaları tomonidan 2022-yil yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 268,4 mldr.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8%ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 226,9 mldr .so'mga ko'payganligi kuzatildi.



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonaları tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-sentabr	2022-yil yanvar-sentabr	Farqi (+/-)
Elektroenergiya, mln.kVt.s	293,6	296,9	3,3
Issiqlik energiyasi, ming.gkal	1233,1	971,4	-261,7

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 170,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 %ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-sentabr	2022-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mlrd.so'm</i>	11,9	16,2	4,3
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, <i>mln.so'm</i>	12,8	22,1	9,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,3 mlrd.so'm yoki 36,0 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 9,3 mlrd. so'm va 21,2%ga ko'paygan.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 282,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 110,8%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 33,4%ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021-yil  
yanvar-sentabr

38,2%

2022-yil  
yanvar-sentabr

36,1%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021-yil  
yanvar-sentabr

61,8%

2022-yil  
yanvar-sentabr


63,9%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 41,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib 16,4%ni va Uchko'prik tumanida 15,3%ni tashkil etdi.

yanvar-sentabr

## Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

*Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo'qon shahriga to'g'ri kelib, 1191,4 mlrd.so'mni yoki jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 16,4 %i, Farg'ona shahrida 1017,4 mlrd.so'mni jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 13,9 %i shuningdek, Uchko'prik tumanida 1115,4 mlrd. so'mlik, 15,3 %ni tashkil etdi.*



**7 112,2**


mlrd. so'm

2021-yil yanvar-sentabr

**7282,6**

mlrd. so'm

2022-yil yanvar-sentabr



Jami sanoat  
ishlab chiqarish  
hajmida iste'mol  
mahsulotlarining  
ulushi

2021-yil

107,8%

2022-yil

110,8%

## Farg'ona viloyati hududlari kesimida Sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Farg'ona shahriga to'g'ri kelib, 23,6%ni, shuningdek, Qo'qon shahri 18,3%ni, Toshloq tumani 11,7%ni, Uchko'prik tumani 7,6% ni tashkil etdi.

### Farg'ona viloyati

2021-yil

19 317,1 mlrd.so'm

2022-yil

21 831,8 mlrd.so'm

yanvar-sentabr



2021-yil

106,4%

2022-yil

106,0 %

Marg'ilon.sh	931,2	100,3
Quvasoy.sh	1141,7	109,2
Qo'qon.sh	3995,7	116,1
Farg'ona.sh	5144,7	100,5
Yozyovon.t	151,6	116,6
Furqat.t	405,5	112,7
Dang'ara.t	572,4	116,3
Farg'ona.t	655,6	98,8
O'zbekiston.t	608,8	104,5
Toshloq.t	2556,4	103,1
So'x.t	74,6	99,1
Rishton.t	241,0	106,0
Uchko'prik.t	1657,5	104,0
Quva.t	452,5	109,2
Beshariq.t	595,2	112,2
Buvayda.t	457,5	98,4
Bag'dod.t	629,1	117,1
Qo'shtepa.t	1063,5	123,4
Oltiariq.t	497,1	

FHI, %da

mlrd. so'm

yanvar-sentabr

## Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi tumanlar orasida Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib, 12,6% shuningdek, Qo'qon shahri 17,7 %, Farg'ona shahri 16,7%ni tashkil etadi.


### Farg'ona viloyati

**4395,4** mlrd. so'm

2021-yil yanvar-sentabr

**4652,7** mlrd. so'm

2022-yil yanvar-sentabr



Jami iste'mol  
mollari ishlab  
chiqarish hajmida  
nooziq-ovqat  
mahsulotlarining  
ulushi



Marg'ilon.sh	96,1	345,1
Quvasoy.sh	248,2	52,4
Qo'qon.sh	104,8	825,1
Farg'ona.sh	111,9	776,3
Yozyovon.t	106,0	49,0
Furqat.t	296,1	276,5
Dang'ara.t	105,6	187,8
Farg'ona.t	98,7	46,1
O'zbekiston.t	112,8	55,1
Toshloq.t	103,2	405,2
So'x.t	86,8	21,6
Rishton.t	104,8	62,3
Uchko'prik.t	93,4	586,4
Quva.t	122,3	83,1
Beshariq.t	173,4	698,3
Buvayda.t	110,8	185,7
Bag'dod.t	91,3	240,2
Qo'shtepa.t	135,9	174,6
Oltiariq.t	205,6	106,9


o'sish sur'ati

mlrd. so'm

yanvar-sentabr

## Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg'ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko'prik tumaniga to'g'ri kelib 20,1 %ni, shuningdek, Qo'qon shahri 13,9% ni, Farg'ona shahri esa 9,2 %ni tashkil etdi.




### Farg'ona viloyati

2 716,8 mlrd.so'm


2021-yil yanvar-sentabr

2 629,8 mlrd.so'm

2022-yil yanvar-sentabr



Jami iste'mol  
mollari ishlab  
chiqarish hajmida  
oziq- ovqat  
mahsulotlarining  
ulushi




o'sish sur'ati

mlrd. so'm

yanvar-sentabr

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (17059,7 ming.so'm), Qo'qon shahrida (15287,6 ming.so'm) hamda Toshloq tumanida (12094,2 ming.so'm), Quvasoy shahrida (11699,2 ming.so'm), Uchko'prik tumanida (6923,9 ming so'm).*



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1541,3 ming.so'm bo'lgani holda, Qo'qon shahrida – 4558,3 ming.so'mga, Toshloq tumanida 2127,4 – Uchko'prik tumanida 4659,6 – Farg'ona shahrida 3373,5 ming so'mga, to'g'ri keldi.

### Farg'ona viloyati

2021-yil

1847,8 ming. so'm

2022- yil

1855,3 ming. so'm



2021-yil

105,8 %

2022-yil

108,6 %

Yozyovon.t	97,9	867,3
Furqat.t	161,0	3009,4
Dang'ara.t	98,1	1455,9
Farg'ona.t	124,0	622,5
O'zbekiston.t	107,1	446,5
Toshloq.t	106,3	2127,4
So'x.t	100,2	704,2
Rishton.t	105,3	551,2
Uchko'prik.t	101,2	4659,6
Quva.t	98,3	777,2
Beshariq.t	246,4	973,4
Buvayda.t	115,2	1322,8
Bag'dod.t	98,2	2154,3
Qo'shtepa.t	112,1	1352,9
Oltiariq.t	136,4	774,2
Marg'ilon.sh	98,5	2315,5
Quvasoy.sh	117,5	1097,4
Qo'qon.sh	104,3	4558,3
Farg'ona .sh	107,3	3373,5

ming. so'm


*yanvar-sentabr*

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022-yilning yanvar-sentabr oylarida % (foiz)da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 003,7 mlrd.soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 41,2 %ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, Soʻx, Yozyovon tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan . Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Furqat tumani (95,5%), Buvayda tumani (85,5%), Uchkoʻprik tumani (84,4%), Bagʼdod tumani (71,6%), Rishton tumani (56,1%), tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar Toshloq tumani (11,9%), Fargʼona tumani (25,0%), Quva tumani (25,3%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra

## Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg'ona viloyatida 11412 ta sanoat korxonalarini ro'yxatdan o'tgan bo'lib ulardan 10723 faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1461 tasi (faoliyat ko'satayotgan korxonalar umumiy sonining 13,6 %) Qo'qon shahriga, 1247 tasi (11,6%) Farg'ona shahriga, 1052 tasi (9,8 %) Marg'ilon shahriga, 714 tasi (6,7%) Uchko'prik tumaniga, 652 tasi (6,1 %) O'zbekiston tumaniga, 654 tasi (6,1 %) Dang'ara tumaniga to'g'ri kelmoqda.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 155 ta loyiha bo'yicha 1447,9 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 41,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida 558 ta yangi ish o'rnlari yaratildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rnlari soni kamayganligi kuzatildi.